“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=382

2026-yil
8-son
avgust
ISSN 3093-8546

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda Oila va xotin-qizlar qoʻmitasining ishtiroki

Iqboljon Azizov,
Fuqarolik ishlari boʻyicha Qoʻrgʻontepa tumanlararo sudining raisi
e-mail: iqboljonazizov045@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada Oʻzbekistonda xotin-qizlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda Oila va xotin-qizlar qoʻmitasining roli ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada sohadagi milliy qonunchilik bazasi, xalqaro konvensiyalarning implementatsiyasi, xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish tizimi hamda ushbu institutning huquqiy maqomini yanada mustahkamlashga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar bayon etilgan,Oila va xotin-qizlar qoʻmitasiningprotsessual huquq va majburiyatlari yoritilgan.

Калит сўзлар. fuqarolik protsessi, boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilayotgan davlat boshqaruvi organlari, ish yuzasidan xulosa, xotin-qizlar qoʻmitasi, ayollar huquqlari, gender tenglik, tazyiq va zoʻravonlik

Аннотация. В данной статьенаучно-правовому анализу подвергнута роль Комитета по делам семьи и женщин в защите прав и законных интересов женщин в Узбекистане. В статье изложены национальная законодательная база в данной сфере, имплементация международных конвенций, система защиты женщин от притеснения и насилия, а также научные предложения и рекомендации, направленные на дальнейшее укрепление правового статуса данного института. Кроме того, освещены процессуальные права и обязанности Комитета по делам семьи и женщин.

Ключевые слова. гражданский процесс, органы государственного управления, защищающие права других лиц, заключение по делу, комитет женщин, права женщин, гендерное равенство, притеснение и насилие

Annotation. This article provides a scientific and legal analysis of the institutional role of the Committee for Family and Women in protecting the rights and legitimate interests of women in Uzbekistan, and enhancing their role in state and public administration. The article outlines the national legislative framework in this area, the implementation of international conventions, the system for protecting women from harassment and violence, and puts forward scientific proposals and recommendations aimed at further

strengthening the legal status of this institution. Furthermore, the procedural rights and obligations of the Committee for Family and Women are highlighted.

Keywords. civil procedure, state administration bodies protecting the rights of other persons, conclusion on the case, women's committee, women's rights, gender equality, harassment and violence

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilingan davrdan boshlab xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash va ularni kamsitishning har qanday shakllaridan himoya qilish xalqaro hamjamiyatning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarining (BRM) 5-maqsadi ham aynan gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillaridanoq xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro hujjatlarga, jumladan, BMTning “Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi konvensiyasiga (CEDAW) qo‘shildi va tegishli majburiyatlarni zimmasiga oldi.

Milliy darajada ushbu xalqaro majburiyatlarni bajarish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish va ularning huquqlarini tizimli himoya qilish maqsadida Xotin-qizlar qo‘mitasi tashkil etilgan edi.

O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishning institutsional mexanizmi uzoq rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Dastlab jamoat tashkiloti sifatida faoliyat boshlagan Xotin-qizlar qo‘mitasi keyinchalik davlat boshqaruvi tizimi bilan uzviy integratsiyalashdi.

Keng ko‘lamli ma'muriy islohotlar natijasida mazkur tuzilma Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi sifatida qayta tashkil etilib, uning vakolatlari va institutsional maqomi yangi bosqichga ko‘tarildi.

Bugungi kunda ushbu qo‘mita xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish sohasidagi davlat siyosatini muvofiqlashtiruvchi asosiy ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi.

Shuning uchun fuqarolik sud ishlarini yuritishda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi ayollar huquqlarini himoya qilishdagi protsessual maqomini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashi qat'iy belgilab qo‘yildi.

Mazkur konstitutsiyaviy normalarni amaliyotga tatbiq etishda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun muhim huquqiy poydevor bo‘ldi.

Ushbu qonunga ko‘ra, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat

siyosatini amalga oshiruvchi mas'ul organ sifatida belgilandi. Qo‘mita raisining bir vaqtning o‘zida Bosh vazir o‘rinbosari maqomiga ega ekanligi, mazkur institutning davlat boshqaruvi iyerarxiyasidagi yuqori nufuzidan dalolat beradi.

Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatining eng ustuvor va muhim yo‘nalishlaridan biri – ayollarni uydagi va jamiyatdagi zo‘ravonlik va tazyiqlardan himoya qilish hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda qo‘mita bevosita huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda ishlaydi.

Qonunchilikka muvofiq tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan ayollarga davlat tomonidan “Himoya orderi” beriladi.

Bundan tashqari, qo‘mita huzurida Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari (shelterlar) faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu markazlarda zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarga quyidagi yordam turlari ko‘rsatiladi:

– Shoshilinch tibbiy va psixologik yordam;

– Bepul yuridik maslahatlar va sudlarda ularning manfaatlarini himoya qilish;

– Vaqtinchalik boshpana (shelter) bilan ta'minlash;

– Kasb-hunarga o‘qitish va bandligini ta'minlash orqali iqtisodiy mustaqillikka erishishiga ko‘maklashish.

Qo‘mita faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri oilaviy nizolarni sudgacha bo‘lgan bosqichda hal etish, ajralish jarayonlarining oldini olish va oilalarni saqlab qolishga ko‘maklashishdan iborat.

Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining hududiy bo‘limalari tomonidan oilalardagi nosog‘lom muhitni barvaqt aniqlash, nizoli vaziyatlarni bartaraf etish va jabrlanuvchilarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish kabi masalalar sudlarga da'vo arizalar bilan murojaat qilishni ham taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2023-yil 21-dekabrdagi 208-farmoni bilan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, huquqlarini himoya qilish va qonuniy manfaatlarini ifodalash, ijtimoiy xodim va boshqa davlat xizmatchilari bilan hamkorlikda xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilish kabi vazifalar Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari etib belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-avgustdagi 500-qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanib, oila va xotin-qizlar qo‘mitasi va uning hududiy bo‘limlarining vazifa va vakolatlari belgilab berildi.

Nizomning 12-bandida oila va xotin-qizlar ko‘mitasi xotin-qizlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ko‘zlab, sudlarga ariza va da'volarni kiritish vakolatiga ega ekanligi nazarda tutildi.

Ushbu qonun hujjatiga asosan oila va xotin-qizlar qo‘mitasi va uning hududiy bo‘limlari FPK 52-moddasiga muvofiq

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish uchun sudlarga da'vo ariza bilan murojaat qilish hamda ish yuzasdan xulosa berish uchun protsessda ishtirok etish huquqlariga ega hisoblanadi.

Oila va xotin-qizlar qo‘mitalari boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish uchun sudlarga da'vo arizalar berish vakolati berilgandan keyin “Davlat boji to‘g‘risida”gi qonunning 8-moddasiga o‘zgartirish kiritilib, 43-bandi bilan Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalari xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida beriladigan arizalar, shikoyatlar va da'volar yuzasidan fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga davlat boji to‘lashdan ozod qilindi.

Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining hududiy bo‘linmalari sudlarga quyidagi nizolar bo‘yicha xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilib da'vo ariza kiritishi mumkin:

– tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni nikohdan ajratish haqida;
– uyga kiritish haqida;
– otalik huquqidan mahrum qilish haqida;
– aliment undirish haqida;
– otalikni belgilash haqida;
– bolani olish haqida;
– onalik huquqini tiklash haqida;
– bolani yashash joyini ona bilan belgilash haqida;
– uy-joydan foydalanish tartibini belgilash haqida;
– bola bilan ko‘rishib turish tartibini belgilash haqida;
– jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik natijasida yetkazilgan zararlarni undirish haqida va boshqalar.

Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi ishda ishtirok etuvchi shaxslardan biri bo‘lganligi sababli FPKning 40-moddasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi, jumladan ish materallari bilan tanishish, ulardan ko‘chirmalar olish, nusxalar ko‘chirish, rad etish to‘g‘risida arz qilish, dalillar taqdim qilish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga va odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashayotgan shaxslarga savollar berish, arz qilish, iltimosnomalar taqdim etish, sudga og‘zaki va yozma tushuntirishlar berish, sud muhokamasi davomida yuzaga keladigan barcha masalalar bo‘yicha o‘zlarining vajlarini bayon qilish, boshqa shaxslarning arzlari, iltimosnomalari, vajlariga qarshi e'tirozlar bildirish, sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish, sud hujjatlarining majburiy ijrosini talab qilish, davlat ijrochisi tomonidan harakatlar sodir etilishida hozir bo‘lish va o‘z huquqlarini amalga oshirish huquqiga ega.

Sudga da'vo ariza bergan oila va xotin-qizlar qo‘mitasi da'vogar sifatida o‘ziga manfaatini ko‘zlar da'vo ariza bergan shaxsning huquqini tiklash haqida qaror qabul qilinishidan protsessual manfaatdor bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomda oila va xotin-qizlar qo‘mitasi sudlarga da'vo ariza berish huquqi qayd etilgan bo‘lsada, bugunga kunda oila va

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

xotin-qizlar qoʻmitasining xotin-qizlarning huquqlariga doir ishlarni koʻrilishida ish yuzasidan xulosa berish uchun ishtirok etishiga xam ehtiyoj mavjud.

Shu bois Oʻzbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi toʻgʻrisidagi nizomga quyidagicha oʻzgartirish kiritishni taklif qilamiz: oila va xotin-qizlar qoʻmitasi xotin-qizlar huquqlariga oid nizolarni koʻrilishida ish ish yuzasidan **xulosa beruvchi davlat boshqaruvi organi** sifatida belgilangan tartibda ishtirok etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Расмий матн. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023

2. БМТнинг Барқарор ривожланиш мақсадлари: Расмий дастур. – Нью-Йорк, 2015. URL:

3. Хотин-қизларни камситишнинг барча шаклларига барҳам бериш тўғрисидаги БМТ конвенцияси (CEDAW). – Нью-Йорк, 1979. URL:

4. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик процессуал кодекси.

5. Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Оила ва хотин-қизлар қўмитасининг фаолиятини такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 25.12.2023 йилдаги 208-фармони. Lex.uz/docs/6704824.

7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 13.08.2024 йилдаги “Ўзбекистон Республикаси Оила ва хотин-қизлар қўмитаси фаолиятини тартибга солиш соҳасидаги айрим норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги 500-қарори. Lex.uz/docs/70615.